

"UNICON-SOFT" MCHJ nomidan direktor **XABIBULLAYEV SHERZOD XAYRULLA O'G'LII**, Ustav asosida faoliyat ko'rsatuvchi, bundan keyin Operator deb ataluvchi bir tomonidan va **CHORTOQ TUMAN MADANIYAT BO'LIMI-TUMAN MADANIYAT MARKAZI** nomidan **A'ZAMJON BOLTABOYEV PO'LATOVICH**, undefined asosida faoliyat ko'rsatuvchi bundan keyin Abonent deb ataluvchi, ikkinchi tomonidan, birgalikda Tomonlar deb ataluvchilar, ushbu Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

ATAMALAR VA TA'RIFLAR

Ijro intizomi yagona idoralararo elektron tizimi, IJRO.GOV.UZ (bundan keyin - Tizim) – bu Operator tomonidan ishlab chiqilgan va unga tegishli bo'lgan, davlat organlarida elektron hujjat aylanishi va ijro intizomining nazoratini amalga oshirish uchun mo'ljallangan maxsus dasturiy kompleks.

Abonent – Operator bilan Tizimdan foydalanib Elektron hujjat aylanishi va ijro intizomini nazorat qilish xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini tuzgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt.

Foydalanuvchi – o'z lavozim majburiyatlari sababli Tizimning oxirgi foydalanuvchisi hisoblanadigan, Abonent xodimi bo'lgan (yoki unga tenglashtirilgan shaxs) jismoniy shaxs.

Tizim moduli – Abonentga qo'shimcha imkoniyatlarni beruvchi va Tizimning asosiy funksionali hamda vazifasiga ta'sir ko'rsatmaydigan Tizimning qismi. Moduldan foydalanish Abonent uchun ixtiyorli hisoblanadi.

Shaxsiy kabinet – Abonentga Foydalanuvchilarni qo'shish/chiqarib tashlash orqali ushbu Shartnomaga bo'yicha xizmatlardan foydalanish, shuningdek statistika ma'lumotlarini ko'rib chiqish va Foydalanuvchilarning faolligi to'g'risidagi hisobotlarni shakllantirish imkonini beradigan Tizimning bo'limi.

Elektron raqamli imzo (bundan keyin - ERI) - elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini ERI yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda ERI ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va ERI yopiq kalitining egasini identifikasiya qilish imkoniyatini beradigan imzo;

Hisobot oyi – xizmatlar ko'rsatiladigan kalendar oyi.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Ushbu Shartnomaga bo'yicha Operator Abonentga Tizimdan (SaaS modeli bo'yicha) elektron hujjat aylanishi va ijron intizomini nazorat qilish xizmatlari (bundan keyin – «Xizmatlar»)ni ko'rsatadi.

1.2. Tizimning huquqiy egasi hisoblangan Operator Tizimga egalik qilish, undan foydalanish va uni boshqarishni, shu jumladan Tizimning to'liq texnik ishlashini ta'minlash, kuzatishni va Tizimdan foydalanish qoidalarini belgilashni amalga oshiradi.

1.3. **IJRO.GOV.UZ** manzili bo'yicha joylashgan Tizimdan foydalanish qoidalari ushbu Shartnomaga bilan uzviy bog'langan va bajarilishi majburiy bo'lgan hujjat hisoblanadi.

2. XIZMATLAR NARXI VA HISOB-KITOBLAR TARTIBI

2.1. 1 foydalanuvchi (Abonent xodimi) uchun Abonent to'lovi bir oyda QSSsiz **40,475.00** (qirq ming to'rt yuz yetmish besh) so'mni tashkil qiladi.

2.2. 1 ta foydalanuvchi (Abonent xodimi) uchun operator xizmatlari 12 oy uchun QSSsiz **485,700.00** so'mni tashkil etadi (**Yanvar dan Dekabr gacha**).

Abonent foydalanuvchilari soni 3 dona.

2.3. Shartnomaning umumiyligi QSSsiz **1,457,100** (bir million to'rt yuz ellik yetti ming bir yuz) so'm.

2.4. Abonent ushbu Shartnomaga kuchga kirgan paytdan boshlab 3 (uch) bank kuni ichida Operatorning hisob raqamiga Shartnomaga narxining 30 foizi miqdoridagi pul mablag'larini o'tkazish orqali Operator Xizmatlari narxining dastlabki to'lovini amalga oshiradi. Shartnomaga narxining 70 foizi miqdoridagi qolgan summasini Abonent Hisob-fakturani tasdiqlaganidan so'ng, 5 bank kunida to'lanadi.

2.5. Ushbu Sharhnomalar bekor qilingan hollarda qayta hisob-kitoblar va to‘lovlar masalalari Tomonlarning kelishuvi bo‘yicha yoki Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida belgilangan tartibda hal qilinadi.

3. TOMONLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

3.1. Operator:

3.1.1. Sharhnomalar kuchga kirgan kundan boshlab 10 kun ichida xizmatlarni ko‘rsatishni boshlash va sharhnomaning umumiy miqdori uchun hisob-fakturani berish.

3.1.2. Abonentni dasturiy ta‘minotni to‘laqonli ekspluatatsiya qilish va iste’mol qilinadigan Xizmatlardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan texnik qo‘llab-quvvatlash bilan ta‘minlash.

3.1.3. Abonentni Xizmatlarni taqdim etish normal rejimining buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan reja bo‘yicha texnologik ishlarni o‘tkazishdan 24 soat oldin va avariya vaziyatlar yuzaga kelgan holda 1 soat oldin elektron pochta yoki **IJRO.GOV.UZ** rasmiy saytida bu ishlarning o‘tkazilishi to‘g‘risida axborot xabarini berish orqali xabardor qilish.

3.1.4. Agar Abonent ushbu Sharhnomalar shartlarini buzgan yoki favqulodda vaziyatlar bilan bog‘liq sabablarga ko‘ra elektron pochta yoki Shaxsiy kabinetda rasmiy xabarni berish orqali elektron hujjat ko‘rinishida Abonentni Xizmatlar ko‘rsatishning to‘xtatilishi to‘g‘risida oldindan ogohlantirish.

3.1.5. Axborotni uzatish kanallarining xavfsizligi, Tizimdagagi axborot va hujjatlarning saqlanishi, butunligi va ishonchligini, shuningdek Foydalanuvchi shaxsiy ma’lumotlari va Tizimni ekspluatatsiya qilish bilan bog‘liq holda olingan boshqa axborotning himoyalanishini ta‘minlash.

3.1.6. Tizimdan foydalanish davomida olingan hujjatlarni qandaydir ma’lumotlarni buzmagan holda Abonentdan olingan xuddi o‘sha ko‘rinishda qabul qilish, saqlash va foydalanishini ta‘minlash.

3.1.7. Ushbu Sharhnomalar doirasida Tizimdan olingan har qanday axborotning konfidensialligini saqlash majburiyatlariga ega.

3.2. Abonent:

3.2.1. Tizimdan foydalanan qoidalari, Tizimda hujjatlarni qabul qilish, tekshirish va jo‘natishga qo‘yiladigan texnik talablarga qat’iy rioya qilgan holda harakat qilish majburiyatiga ega.

3.3. Operator quyidagi huquqlarga ega:

3.3.1. Quyidagi hollarda Xizmatlarni taqdim etishni bir tomonlama tartibda to‘xtatib turish, shu jumladan Tizimdan foydalana olishni blokirovkalash orqali:

- umumiy davomiyligidagi 15 (o‘n besh) kalendar kunidan ko‘p Xizmatlarga haq to‘lanmaganda;

- Abonentni xabardor qilgan holda Tizimda reja bo‘yicha va/yoki rejadan tashqari ishlarni o‘tkazilganda;

- Abonent tomonidan Tizim xavfsizligiga tahdidlari aniqlanganda.

3.4. Abonent quyidagi huquqlarga ega:

3.4.1. O‘zR ijro, sud yoki qonunchilik hokimiyati organlari tomonidan kiritiladigan ehtimoliy cheklowlarni hisobga olgan holda ushbu sharhnomada ko‘zda tutilgan uzluksiz Xizmatlardan foydalanish.

3.4.2. Texnik konsultatsiya olish uchun va Tizimning ishlash masalalari bo‘yicha telefon yoki elektron pochta orqali Operatorga murojaat qilish.

3.5. Xizmatlardan foydalanishni vaqtincha to‘xtatish zarur bo‘lgan holda, Abonent bu haqda to‘xtatib turish paytigacha kamida 5 (besh) ish kuni muddatida Operatorni xabardor qilishga majbur. Aks holda Tizimdan haqiqiy foydalanish faktidan qat’i nazar Xizmatlar lozim darajada ko‘rsatilgan bo‘lib hisoblanadi.

4. TOMONLAR JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

4.1. O‘z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun Tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari uchun muvofiq javobgar bo‘ladilar.

4.2. Ushbu Sharhnomalar bo‘yicha Xizmatlarga haq to‘lash muddatlarini buzganligi uchun Operator Abonentdan har bir kechiktirilgan kun uchun qarzdorlik summasining 0,5 foiz (nol butun o‘ndan besh foiz) miqdorida, ammo ushbu Sharhnomalar narxidan 50 foizdan ko‘p bo‘lmagan miqdorda penyani undirish huquqiga ega.

4.3. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganliklari uchun javobgar bo'lmaydilar, agar bajarmaslik uchinchi shaxslarning aybi bilan yu'z bergen bo'lsa. Bunday holda Tomonlar bunday bajarmaslik sabablarini bartaraf etish uchun maksimal darajada harakatlar qilish majburiyatiga ega.

4.4. Operatorning javobgarlik zonasini faqat ushbu Shartnomada belgilangan majburiyatlar bilan cheklangan.

4.5. Operator Tizimda aylanadigan hujjatlarning mazmuni uchun javobgar bo'lmaydi, ularni o'zgartirish yoki ularga boshqa tarzda ta'sir ko'rsatish va ularni uchinchi shaxslarga oshkor qilishga haqli emas, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno.

4.6. Ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan barcha nizolar muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Tomonlarning ikki tomonlama kelishuviga erishish imkonini bo'Imagan holda yuzaga kelgan nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

5. KONFIDENTIALLIK

5.1 Tomonlarning ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun asoslangan ravishda zarur bo'lган axborot bilan almashadilar. Ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishga tegishli bo'lган, bir tomon tarafidan ikkinchi tomonga taqdim etiladigan, unga nisbatan qonunlar bilan cheklangan foydalana olish rejimi ko'zda tutilgan barcha yozma yoki og'zaki axborot yoki axborotni uzatuvchi tomon boshqa tomonga bunday axborot konfidensial hisoblanishi to'g'risida, ushbu bilan konfidensial axborot («Konfidensial axborot») hisoblanishi to'g'risida oshkora xabardor qilgan. Konfidensial axborotga shu jumladan shaxsiy va tijorat, kasbga, xizmatga oid, shuningdek qonun hujjatlari bilan belgilangan boshqa turdag'i sirlardan iborat ma'lumotlar, buxgalteriya va moliyaviy ma'lumotlar, axborot va telekommunikatsiya tizimlarini sozlash uchun boshqaruv axboroti kiradi. Konfidensial axborot undan ruxsasiz foydalanishdan, uning butunligi, saqlanishi va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlashi kerak.

5.2. Ushbu Shartnomaga muvofiq Konfidensial axborotni taqdim etuvchi tomon («Uzatuvchi tomon»)ning yozma roziligini olmasdan ushbu Konfidensial axborotni oluvchi Tomon («Oluvchi tomon») Konfidensial axborotning qandaydir qismidan ushbu Shartnomada ko'zda tutilmagan maqsadlar uchun foydalanmaydi (i), Konfidensial axborotni yoki uning qismini asoslangan ravishda ushbu Shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda Konfidensial axborotdan foydalana oladigan va ular ushbu Shartnoma bo'yicha tomon bo'lган holdagi kabi Konfidensial axborotning saqlanishini ta'minlashga rozi bo'ladigan Oluvchi tomon xodimlari va maslahatchilari (shuningdek subpudratchilar)ga tegishli bo'Imagan qandaydir shaxslar yoki tashkilotlarga taqdim etmaydi (ii), Konfidensial axborotdan noqonuniy foydalanishga yo'l qo'ymaydilar (iii).

5.3. Oluvchi tomon Konfidensial axborotni yoki uning qismini oshkor qilanligi uchun javobgar bo'lmaydi, agar u bundan Konfidensial axborot uni olish vaqtida hammaga tegishli hisoblanganligi yoki keyinchalik Oluvchi tomonning aybisiz bunday bo'lganligini (i); bu axborot olingunga qadar Oluvchi tomonga ma'lum bo'lган yoki uning ixtiyorida bo'lganligini (ii); Konfidensial axborotning saqlanishini ta'minlash majburiyatining buzilishi bo'Imaganda (iii) Oluvchi tomonga Uzatuvchi tomon bo'lib hisoblanmaydigan manbadan ma'lum bo'lganligini isbotlay olsa.

5.4. Agar Oluvchi tomon qonunga ko'ra qonun hujatlariga muvofiq Konfidensial axborot oshkor qilinishini talab qilish vakolatiga ega davlat hokimiyati organlariga qandaydir Konfidensial axborotni oshkor qilishga majbur bo'lsa, u holda bunday Tomon bu fakt to'g'risida zudlik bilan Uzatuvchi tomonni yozma ravishda xabardor qilishga majbur. Shu bilan birga Uzatuvchi tomonni lozim darajada xabardor qilingan holda, ushbu bandga muvofiq Konfidensial axborotni oshkor qilayotgan Uzatuvchi tomon Konfidensial axborotni oshkor qilmaslik to'g'risidagi o'z majburiyatini buzgan deb hisoblanmaydi. Bunday oshkor qilingan holda Oluvchi tomon Konfidensial axborotning muhofaza qilinishini ta'minlash uchun unga bog'liq bo'lган hamma xatti-harakatlarni bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

5.5. Konfidensial axborot Uzatuvchi tomonning mulki hisoblanadi va bu axborot ushbu Shartnomada ko'zda tutilmagan maqsadlar uchun kerak bo'lmay qolgandan keyin Uzatuvchi tomonning talabi bo'yicha zudlik bilan bunday tomonga qaytarilishi kerak yoki Oluvchi tomon yoki

ushbu bo‘lim qoidalariga muvofiq bunday Konfidensial axborot Oluvchi tomon tarafidan taqdim etilgan boshqa qandaydir tomon tarafidan ko‘chirilgan barcha nusxałari bilan birga yo‘q qilinadi.

6. KORRUPSIYAGA QARSHI SHART

6.1. Tomonlar:

- Tomonlar, ularning affilangan (o‘zaro bog‘langan) shaxslari va xodimlari, ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo‘lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va‘da qilish, ta’magirlilik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo‘lish xattiharakatlari/harakatsizliklarini sodir etmaydilar.

- Tomonlar, ularning affilangan (o‘zaro bog‘langan) shaxslari va xodimlari boshqa Tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag‘batlantirishdan, shu jumladan pul summalarini, sovg‘alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg‘araz ko‘rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag‘batlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xattiharakatlarni/harakatsizliklar bajarilishini ta’minalashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma‘lum qiladilar.

6.2. Tomonda ushbu Shartnomaning 6.1-bandidagi talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to‘g‘risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli Tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib bo‘lmaydigan dalillari mavjud bo‘lgan holda esa – amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

7. BARTARAF ETIB BO‘LMAYDIGAN KUCH HOLATLARI (FORS-MAJOR)

7.1. Tomonlar ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni qisman yoki to‘liq bajarmaganligi uchun, agar bunday holat ushbu Shartnoma tuzilgandan keyin va Tomonlar oqilona chora-tadbirlar bilan oldini ololmagan favqulodda tusdagи voqealar oqibatida paydo bo‘lgan bartaraf etib bo‘lmaydigan kuchlar oqibati hisoblansa, javobgarlikdan ozod etiladi. Bartaraf etib bo‘lmaydigan kuch holatlari deganda: suv toshqini, yong‘in, zilzila, davlat organlarining harakatlari yoki harakatsizligi (shu jumladan valyuta operatsiyalarini cheklashlar), epidemiya/pandemiya boshqa tabiat hodisalari, urush yoki harbiy harakatlar va sh.k. tushuniladi.

7.2. Shartnomaning 7.1-bandida ko‘rsatilgan holatlар yuzaga kelganda, har bir Tomon 5 (besh) kalendar kuni ichida bu haqda boshqa Tomonga xabar qilishi kerak. Bartaraf etib bo‘lmaydigan kuch holatlari to‘g‘risida xabar qilmaslik yoki o‘z vaqtida xabar qilmaslik tegishli Tomonni majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslikni asoslash uchun ularga havola qilishdan mahrum qiladi.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA UNI BEKOR QILISH SHARTLARI

8.1. Ushbu Shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi g‘aznachiligidagi ro‘yxatga olingan paytdan boshlab kuchga kiradi va **2022 yilning 31 dekabrigacha** amal qiladi.

8.2. Tomonlar ushbu shartnomani Tomonlarning kelishuviga ko‘ra Shartnomada va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan hollarda muddatidan oldin bekor qilish huquqiga ega. Shartnomaning bekor qilinishini boshlab beruvchi Tomon taxmin qilingan bekor qilish sanasidan 15 (o‘n besh) kalendar kun oldin o‘zining qarori to‘g‘risida xabardor qiladi. Tomonlarning barcha o‘zaro hisob-kitoblari amalga oshirilganidan keyin shartnoma bekor qilingan hisoblanadi.

9. YAKUNIY QOIDALAR

9.1. Ushbu Shartnoma va unga bog‘liq holda Tomonlar tarafidan yaratilgan barcha hujjatlar O‘zbekiston Respublikasining «Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida»gi Qonun talablariga muvofiq yuridik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi va elektron shaklda bajarilganligiga asoslanib nizolashilishi mumkin emas.

9.2. O'zgartirishlar va qo'shimchalar qo'shimcha kelishuv tuzish yo'li orqali Shartnomaga kiritiladi. Ushbu Shartnomaning barcha ilovalari va qo'shimcha kelishuvlari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

9.3. Shartnoma shartlarida ko'zda tutilmagan hollarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga amal qiladilar.

10. YURIDIK MANZILLAR, BANK REKVIZITLARI VA TOMONLAR IMZOLARI

BAJARUVCHI «UNICON-SOFT» MCHJ


Manzil: 100084, Toshkent sh., Mingbuloq ko'ch., 38
Tel: (99871) 202-46-46
H/r: 2020 8000 8008 0935 4003
«Kapitalbank» ATB, Mirzo Ulug'bek filiali
MFO: 01018
STIR: 305 109 680
IFUT: 62 010
QQS ro'yx. kodi: 3260 3001 3988

XABIBULLAYEV SHERZOD XAYRULLA O'G'LI

BUYURTACHI CHORTOQ TUMAN MADANIYAT BO'LIMI-

TUMAN MADANIYAT MARKAZI
Manzil: ИСТИКЛОЛ ХИЕБОНИ 28 УЙ
Tel: 998993918686
H/r: 23402000300100001010

MFO: 00014
STIR: 202325972
IFUT: 84112
QQS ro'yx. kodi: undefined



ДОГОВОР ПОДПИСАН ЭЛЕКТРОННОЙ ЦИФРОВОЙ ПОДПИСЬЮ

Для проверки подлинности электронной цифровое подписи
сканируйте QR код на мобильном устройстве
или пройдите по ссылке

www.isign.uz

SHARTNOMA ELEKTRON RAQAMLI IMZO BILAN IMZOLANGAN

Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun
mobil qurilmadagi QR kodni skanerlang yoki
www.isign.uz havola bo'yicha o'ting



Yuridik ahamiyatga ega hujjatlarni qonun hujjatlariga muvofiqligi to`g`risidā huquqiy xulosa

1. Loyihaning turi: shartnoma

2. Loyihaning nomi:

Chortoq tuman madaniyat bo`limi nomidan nizom asosida ish ko`rvuchi S.Mamativaliyev va “UNIKOM-SOFT” MCHJ nomidan rahbar Habibullayev Sherzod Hayrullo o`g`li bilan o`zaro kelishgan holda shartnoma tuzganliklari to`g`risida.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqida malumot:

Chortoq tumani maktabgacha talim bo`limi tomonidan 2022-yil 1-fevral kuni ishlab chiqilgan va dasturga kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuristkonsulti



S. Satimov